

**XORIJIY XOM-ASHYO VA MATERIALLARNI BOJXONA HUDUDIDA
QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMIGA RASMIYLASHTIRISH TALABLARINI
SODDALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Mamajonov Oybek ¹

¹ *O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.04.2025

Revised: 26.04.2025

Accepted: 27.04.2025

KALIT SO'ZLAR:

*tashqi savdo, bojxona
boji, bojxona rejimi,
raqamlashtirish,
bojxona rejimi, bojxona
hududi, bojxona tarifi.*

Ushbu maqolada xorijiy xom-ashyo va materiallarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirish talablarini soddalashtirish choralari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KIRISH. Jahon iqtisodiyotining har tomonlama rivojlanishi, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning xalqaro xo'jalik aloqalariga muntazam ravishda integratsiyalashuviga olib keldi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy rivojlanish darajasi turli xilligi va aholining notekis o'sishi xalqaro ayirboshlashni kengaytirish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Ushbu jarayonlar yangi bozorlarning rivojlanishiga, xom-ashyoni olib kirishga, texnologiya va axborotlarni ayirboshlashga, ilmiy, texnika, ishlab chiqarish, madaniy va boshqa tashqi iqtisodiy munosabatlarning jadallashuviga imkon yaratdi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar turli yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishlar ichida tashqi savdo yetakchi o'rinni egallaydi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Xalqaro savdoning rivojlanishi, unga bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlarning ham shakllanishiga olib keldi. Ushbu qarashlarni Adam Smit o'zining mutlaq ustunlik nazariyasida ochib berdi. U har bir mamlakatda boshqa mamlakatlardagiga qaraganda ancha kam chiqimlar bilan tovarlar va xizmatlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga imkon beradigan mutlaq ustunlik mavjudligini isbotlab berdi. Savdo o'zaro foydali bo'lishi uchun mamlakatlarning har biri ishlab chiqarish faoliyatining muayyan yo'nalishlarida mutlaq ustunlikka ega bo'lishlari kerak. A.Smit nazariyasiga ko'ra ixtisoslashtirish qanchalik chuqur bo'lsa, mamlakat oladigan foyda ham shunchalik ko'p bo'ladi (Xamedov I.A., 2001).

Taniqli amerikalik iqtisodchi olim M.Porter o'zining nisbiy ustunlik nazariyasida "xalqaro savdo mamlakatlarning nisbiy ustunlikka erishishi garovidir, xalqaro savdo ushbu - xo'jalik hayotining baynalminallashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va fan- texnika taraqqiyotining jadallashuvi sharoitida turli mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar almashinuvi jarayonidir", (Jukova YE.F., 1999) deb ta'kidlaydi.

TIFni tadqiq etgan iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro savdo mamlakatlari o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish chiqimlarini kamaytirish, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyalashuvni jadallashtirish imkonini beruvchi, TIFning barcha qolgan shakllari va turlarining boshlang'ich, muvofiqlashtiruvchi va ko'paytiruvchi negizi hisoblanadi. Umumjahon savdo tashkiloti (UJST)ning tadqiqotlariga qaraganda, TIFning qariyb 80 % ini tashqi savdo tashkil qiladi. "Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ikkinchi jahon urushidan keyin dunyo bo'yicha ishlab chiqarishning har 10 % o'sishiga jahon savdosining 16 % o'sishi to'g'ri kelgan" yoki "jahon savdosining o'rtacha yillik o'sish sur'ati ishlab chiqarish o'sishiga nisbatan taxminan 1,5 barobarga ortiq bo'lgan." (Avdokushin YE.F., 2001).

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar tarixiga nazar solar ekanmiz, xar bir mamlakatning iqtisodiy ravnaqi uchun TIFning o'rni beqiyos ekanligiga amin bo'lamiz. J.Saks ta'biri bilan aytganda: " Hali hech bir mamlakat jahon iqtisodiyotidan ajralgan holda sog'lom iqtisodiyotni yarata olmagan" (Saks, D. D., 1996).

Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish va rivojlantirish muammolari uzoq o'tmishdan buyon ko'pchilik iqtisodchi olimlar e'tiborini tortib kelgan. Aynan mazkur muammolar merkantilizm, neoklassik, keynschilar, iqtisodiy erkinlik va institusional oqim tarafdorlari tomonidan atroflicha tadqiq etilgan.

TIFni davlat tomonidan tartibga solish bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, xorijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan, vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijro va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishdan iborat.

TIFni tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlat strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Dj.M.Keyns ta'kidlaganidek, bozor mexanizmlari va davlat siyosatining bir-biriga muvofiq kelishi barqaror iqtisodiy rivojlanish omili bo'la oladi (Kushlina V.I. i Volchina N.A., 2000). Bu esa, o'z navbatida, mamlakatning o'ziga xos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavqelarni saqlab qolish va kengaytirishni ta'minlovchi maqbul darajadagi proteksionizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqozo etadi.

Bizning fikrimizcha, o'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini kengaytirish uchun o'zida erkin bozor munosabatlari tamoyillari va qoidalarining beqiyos darajada amalda bo'lishiga yo'l qo'ymaydi. Bunday sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tug'iladi. O'zbekistonda bozor munosabatlarini shakllantirish vaqtida chet el mamlakatlari xo'jalik subektlari bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi har bir alohida olingan mamlakatni va xalqaro iqtisodiy tendensiyalarning rivojlanishini o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi (Vaxabov A.V., Rozikova G.X., Xajibakiyev SH.X., 2006).

Bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichlarida TIFning davlat tomonidan tartibga solinishi muhim deb hisoblaymiz. Chunki o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatda, milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga zarar keltirmagan holda, bozor munosabatlarini jadal sur'atlarda rivojlantirishni va uning jahon xo'jaligiga uyg'un qo'shilishini maqbul darajada ta'minlash zarur. Bu esa, birinchi navbatda, tashqi savdoni va TIFning boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni oqilona tashqi iqtisodiy siyosat yurgizishni talab etadi.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor munosabatlari asosiy tamoyillarining amalda bo'lishi, davlat tomonidan mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va umummilliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida TIF tartibga solinishi lozim.

TIFni davlat tomonidan tartibga solish vositalari, o'z xususiyatlariga ko'ra, boj tarifi qo'llashga asoslangan – tarif va barcha boshqa usullardan iborat – notarif usullarga bo'linadi.

Tartibga solish notarif davlat vositalari miqdoriy usullari va ko'zga tashlanmas proteksionizm usullariga bo'linadi. Savdo siyosatining ayrim vositalari ko'pincha importni chegaralash yoki eksportni ko'paytirish maqsadida qo'llaniladi (Kireyev A., 2005).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz savdo siyosati vositalarining sinflanishini quyidagi 1-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

Savdo siyosati vositalarining tasniflanishi

Usullar		Savdo siyosatining vositasi	Qo'llaniladi	
Tarif		Bojxona bojlari Tarif kvotasi		import import
Notarif	Miqdoriy	Kvotalash Litsenziyalash Ixtiyoriy cheklovlar	ekspor t eksport	import import
	Niqoblangan	Davlat xaridlari Ichki komponentlar tarkibiga bo'lgan talab Texnik to'siqlar Soliq va yig'imlar		import import import import
	Moliyaviy	Subsidiya Kredit Demping	ekspor t eksport eksport	

TIFni davlat tomonidan tartibga solish vositalarini tarif va notarif usullarga sinflash, birinchi bor, Tarif va savdo bo'yicha Bosh shartnoma (GATT) Kotibiyati tomonidan XX asrning 60-yillari oxirida tavsiya etilgan.

Boj tarifi TIFni tartibga solish iqtisodiy usullarining asosi hisoblanadi. Boj tariflarining TIFni tartibga solishdagi alohida ahamiyati shundaki, boj tarifi, milliy iqtisodiyot rivojlanishining obektiv jarayonlariga va xalqaro savdodagi tarkibiy o'zgarishlarga mos ravishda o'zgargan holda, bozor munosabatlarining asosiy tamoyillarini o'zida

mujassamlashtiradi.

Mamlakat savdo siyosatining qaysi tomoni ahamiyatliligidan kelib chiqqan holda, boj tarifining bir-birini to'ldiruvchi bir necha tariflari mavjuddir:

Tarif davlat savdo siyosati vositasi va mamlakat ichki bozori bilan jahon bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tartibga solish davlat qurolidir; TIF tovar nomenklaturasi qoidalariga muvofiq bir tizimga solingan, bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona bojining stavkalari to'plamidir.

Bojxona bojlari, mohiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar: Fiskal ushbu vazifa ham import, ham eksport bojlariga tegishlidir. Chunki ushbu bojlar davlat byudjetini to'ldirish manbalaridan biri hisoblanadi. Proteksionistik (himoya): ushbu vazifa faqat import bojlariga taalluqlidir. Chunki ular yordamida davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qiladi (Svinuxov V.G. Tamojenno-tarifnoye regulirovaniye VED. Uchebnoye posobiye. -M.: Ekonomist, 2004. -S.35).

Proteksionistik tendensiyalarning rivojlanishi proteksionizmning bir necha xil shakllarini keltirib chiqaradi:

- selektiv proteksionizm – alohida tovar yoki alohida davlatlarga nisbatan yo'naltirilgan;
- soha proteksionizmi – aniq bir sohalarni, avvalo, qishloq xo'jaligi sohasini himoya qilish;
- kollektiv (jamlangan) proteksionizm – bir guruhga birlashgan davlatlar qatoriga kirmaydigan davlatlarga nisbatan;
- niqoblangan proteksionizm – ichki iqtisodiy siyosat usullari bilan tatbiq etiladi.

Balanslashtiruvchi, ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narx jahon bozoridagi narxlardan past bo'lgan tovarlarni mamlakat hududidan eksport qilinishining oldini olish eksport bojlariga tegishlidir (Svinuxov V.G., 2014).

Eksport bojlari bozor munosabatlarining tabiatiga zid, deb sanaladi, xalqaro va mintaqaviy ittifoqlar va kelishuvlar ulardan xalqaro savdoda foydalanishni tavsiya etmaydilar.

O'zbekiston Respublikasiga jahonning turli mamlakatlaridan olib kirilayotgan tovarlar assortimenti xilma-xil va o'zgaruvchandir. Lekin shunday tovarlar borki, ular mamlakatimiz ichki bozoriga faqat boshqa mamlakatlardan olib kelinadi. Bular qatoriga: choy, kofe, kakao, tabiiy kauchuk, sitrus mevalari, yog'och mahsulotlari va boshqalar kiradi.

Aksariyat hollarda, import tovarlari mahalliy tovarlarning xuddi o'zi bo'lib, ular bilan

raqobat qiladilar. Shuning uchun, bizningcha, bunday tovarlarga nisbatan olib kirish bojlarining jahon miqyosidagi hamda milliy miqyosdagi xarajatlar va narxlarning vujudga kelayotgan nisbatlarini hisobga olgan holda belgilanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari tashqi savdo dastaklari tarif va notarif usullari orqali tartibga solishning tajribalari ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotiga tariflar kiritilishidan maqsad, birinchidan, milliy ishlab chiqarishning endigina shakllanayotgan tarmog'ini himoya qilish bo'lsa, ikkinchidan, teng raqobat muhitida importni rasmiylashtirish, davlat xazinasini to'ldirishdan iboratdir. Biroq, tarif stavkasining o'ta yuqori darajada o'rnatilishi importni umuman cheklab, xorijiy eksportyorlar uchun ushbu mamlakatga tovarlar eksport qilishni samarasiz holatga keltirishi mumkin. Ushbu holatda, tashqi iqtisodiy faoliyat subektlariga tovarlarni noqonuniy tarzda olib kirishga yo'l ochadi. Shu o'rinda, tarifning optimal darajasini topish alohida ahamiyat kasb etadi (Svinuxov V.G., 2014).

Tarifning optimal stavkasi – iqtisodiyot rivojlanishining yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydigan tarif darajasidir (Draganov V.G., 1998).

Optimal tarif nazariyasini ko'rib chiqish quyidagilarni ko'rsatadi: bir qator olimlarning ta'kidlashicha, import tovariga tarifning nominal darajasi unchalik katta bo'lmagan holda mamlakat tarifning optimal stavkasi darajasini topish imkoni bo'ladi. Ushbu fikrlarni yoritib berishga harakat qilamiz: tarif kiritilmasdan oldin ($T=0$), mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti o'rta darajada rivojlanib kelgan bo'lsa, tarifning optimal darajasi kiritilishi bilan iqtisodiy taraqqiyotga maksimal tarzda ijobiy ta'sir etishi mumkin, ya'ni kiritilgan boj stavkasi uncha katta bo'lmasa, import qiluvchilarga hech qanday to'siq tug'dirmaydi, natijada import hajmi o'zgarmaydi, faqat davlat byudjetiga qo'shimcha mablag' manbai bo'lib xizmat qiladi. Bunda savdoning yaxshilanishi hamda yutuqlarning yo'qotishlar ustidan ustun kelishi sharoitida, tarifning kiritilishi iqtisodiy taraqqiyotni eng yuqori darajaga ko'taradi. Biroq, tarif stavkalari ko'tarilishi tufayli, iqtisodiy yo'qotishlar erishilayotgan yutuqlarni borgan sari kamaytirib boradi, natijada tarif stavkalari shunchalik yuqori yoki taqiqlovchi xarakterga ega bo'ladiki, mamlakatga tovarlarni import qilish o'zining iqtisodiy mazmunini yo'qotadi (Kireyev A.P., 1997).

Tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, optimal tarifning bir qator o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, davlat tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ularni e'tiborga olish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

Optimal tarif stavkasi har doim ijobiy bo'ladi va nol hamda taqiqlovchi tarif stavkasi oralig'ida joylashadi (0-100%); optimal tarif stavkasi har doim unchalik katta bo'lmaydi.

Hisob-kitoblar, talab va takliflarning o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, agar import tarifi unchalik katta bo'lmasa va uning katta qismi chet el yetkazib beruvchilariga import tovarlarining jahon narxlarini pasaytirish hisobiga yuklangan bo'lsa, savdoning yaxshilanishi sharoitida, mamlakatning katta yutuqlari vujudga keladigan iqtisodiy yo'qotishlarni qoplab ketadi; tarifning optimal stavkasi importning elastikligiga qarama-qarshi, ya'ni baho (baholarning import tovarlariga muvozanati o'zgarganda, importning hajmi sezilarli darajada o'zgarmaydi) bo'yicha importning elastikligi qanchalik past bo'lsa, tarifning optimal stavkasi shunchalik yuqori bo'ladi (narxlarning ko'tarilishi natijasida import hajmi ham unga teng ravishda qisqaradi). Ayrim holatlarda importning elastikligi uzoq muddatda yuqori bo'lganda optimal tarif nolga teng bo'ladi, ya'ni uni kiritishning zaruriyati qolmaydi; optimal tarif bir mamlakatni yutuqqa olib kelsa, boshqa mamlakatni yo'qotishlarga olib keladi, chunki optimal tarif foydalarning bir davlatdan ikkinchi bir davlatga ko'chib o'tishida asosiy vosita hisoblanadi (Svinuxov V.G., 2014).

Davlat tomonidan tashqi savdoni tartibga solish amaliyotida gohida tarif usullariga nisbatan notarif usullarni qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi. TIFni davlat tomonidan tartibga solishda gohida tarif usullariga nisbatan notarif usullarni qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki, notarif usullar bozor iqtisodiyoti tabiatiga mos kelmasada siyosiy tomondan qo'llashda qulay, iste'molchilar uchun soliq bo'yicha qo'shimcha og'irliklar tug'dirmaydi. Bundan tashqari, notarif usullar ko'zlagan maqsadlarga erishishni osonlashtiradi.

Yuqoridagi sabablarga ko'ra notarif usullarni qo'llash tarif usullarini qo'llashdan farqli o'laroq, hech bir xalqaro tashkilot tomonidan tartibga solinmaydi, ushbu usullarni o'z savdo siyosatida qo'llash orqali har bir davlat, tarifni qo'llashga nisbatan, o'zini erkinroq his etadi.

O'tgan asrning 70-yillarida GATT tomonidan ishlab chiqilgan tartibga solish usullarini turkumlash sxemasiga ko'ra, hozirgi kunda mavjud bo'lgan 800 turdan ortiq notarif cheklovlarni beshta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- Davlatning TIFga aralashuvi natijasida vujudga kelgan cheklovlar;
- Bojxona va boshqa ma'muriy import va eksport rasmiyatchiliklarining ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan talablar; Savdodagi texnik to'siqlar: ekologik, sanitar, veterinar normalar, tovarni qadoqlash va markirovkalash bilan bog'liq bo'lgan standartlar va talablar, mahsulotni sertifikatlash qoidalari va tartibi;
- Miqdoriy va shunga o'xshash ma'muriy choralar, shu jumladan, import kvotalari, eksportga oid cheklovlar, litsenziyalash, "eksportni ixtiyoriy chegaralash", taqiqlashlar, shuningdek valyuta cheklovlari;

• To'lovlarni to'lash prinsipiga asoslangan cheklovlar, shu jumladan: soliqlar, yig'imglar, import depozitlari, suzuvchi soliqlar, dempingga qarshi va kompensatsiya bojlari va chegaraviy soliqlarga tortish (Svinuxov V.G., 2014).

Notarif cheklovlar, mazmun mohiyatiga ko'ra, miqdoriy, ko'zga tashlanmas va moliyaviy usullarga bo'linadi (Kireyev A.P., 1997).

Miqdoriy chegaralash – eksport va importga ruxsat etilgan tovarlar miqdori va nomenklaturasini belgilashda davlat tomonidan qo'llaniladigan notarif usullarning ma'muriy shaklidir. Miqdoriy chegaralash usullarining amaliyotda keng tarqalgan turi kvota yoki kontingentdir. Ushbu ikkala tushuncha bir xil ma'noga ega bo'lib, kontingent so'zi odatda mavsumiy xarakterga ega bo'lgan kvotani belgilashda qo'llaniladi.

Kvotalash – ushbu eksport yoki importning global taqsimlangan, mavsumiy, tarif va boshqa ko'rinishdagi cheklovlari yoki miqdoriy limitlari hajmidir (Kireyev A.P., 1997).

Kvotalar ta'sir yo'nalishlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

Eksport kvotalari – biron davlatning muayyan bir tovarning umumiy eksport miqdoridagi ulushini belgilashda, xalqaro muvofiqlashtiruvchi kelishuvlar asosida kiritiladi.

Import kvotalari – mahalliy hukumat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, savdo balansini muvofiqlashtirish, ichki bozordagi talab va taklifni tartibga solish, shuningdek boshqa davlatlar tomonidan savdo bo'yicha qo'llaniladigan iqtisodiy tazyiqqa javob tariqasida kiritiladigan kvotalardir.

Qamrab olish darajasi bo'yicha esa kvotalar quyidagi turlarga bo'linadi:

Global kvotalar – qaysi davlatdan import qilinayotganidan, qaysi davlatga eksport qilinayotganidan qat'i nazar, muayyan tovar eksporti va importi bo'yicha ma'lum davrga belgilanadigan kvotalardir. Ushbu turdagi kvotalar ichki iste'molni kerak bo'lgan darajada ushlab turish uchun o'llaniladi; Individual kvotalar – eksport yoki import qilayotgan davlat tomonidan global kvota doirasida belgilanadigan kvotadir.

Ko'p hollarda individual kvotalar mavsumiy bo'ladi, ya'ni ichki bozorni ma'lum tovarlar bo'yicha davlat himoyasiga olish zarurati bo'lganda, ma'lum vaqt oralig'ida qo'llaniladi.


Miqdoriy notarif usullarning yana bir turi – litsenziyalashdir.

Litsenziya – davlat organlari tomonidan, eksport va importni belgilangan hajmi bo'yicha ma'lum davrga beriladigan, TIFni tartibga soluvchi ruxsatnomadir (Kireyev A.P., 1997).

Litsenziyalash kvotalashning tarkibiy qismi bo'lishi yoki TIFni tartibga solishning

alohida qo'llaniladigan davlat vositasi ham bo'lishi mumkin.

Bir marta beriladigan litsenziya – bir savdo kelishuvi asosida bir yil ichida tovarlar olib kirish va chiqish bo'yicha davlat tomonidan beriladigan yozma ruxsatnoma. Bosh litsenziya – u yoki ushbu turdagi tovarlarni chegaralanmagan sondagi savdo kelishuvlari asosida, bir yil davomida olib kirish va chiqish bo'yicha beriladigan ruxsatnoma. Global litsenziya – muayyan bir tovarni ma'lum vaqt oralig'ida, chegaralanmagan miqdorda va qiymatda ixtiyoriy ravishda mamlakatga olib kirish va chiqish uchun beriladigan ruxsatnoma. Avtomatik litsenziya – eksportyor va importyor ma'lum savdo operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha ruxsat so'ragan chog'da, davlat organlari tomonidan rad etilmay beriladigan ruxsatnoma. Yuqorida sanab o'tgan notarif cheklovlar klassifikatsiyasini biz quyidagi 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. TIFni notarif usullar bilan tartibga solishning ma'muriy choralarining tasniflanishi (Svinuxov V.G., 2014.)

Xalqaro savdo amaliyotida ichki bozorni miqdoriy chegaralash hamda ko'zga ko'rinmas usullar vositasida import tovarlaridan himoya qilish bilan birga, eksportni kengaytirish usullari ham keng qo'llaniladi. Ushbu usullarning aksariyati mahalliy eksportyorlarni davlat tomonidan bevosita va bilvosita moliyaviy qo'llab-quvvatlashga asoslangan.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha mamlakatlar, mavjud va yangi tashkil etilayotgan milliy ishlab chiqarishni kuchli raqobat sharoitida samarali rivojlantirish maqsadida, mahalliy tovarlarni jahon bozorlariga ko'proq taklif etishga harakat qiladilar.

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida yangi bozorlarga chiqishga, ularni egallashga va monopol mavqega ega bo'lishga intilish nosog'lom

raqobatni vujudga keltiradi. Bunday sharoitlarda boshqa chora-tadbirlarga nisbatan xalqaro savdo tashkilotlari, xususan, UJST tomonidan ruxsat beriladigan – dempingga qarshi va kompensatsiya bojlarini qo‘llash ko‘proq samara beradi.

TIFni tartibga solishda, miqdoriy chegaralash usullari bilan bir qatorda, notarif usullar ichida ko‘zga tashlanmaydigan, proteksionistik, ya’ni bojxona faoliyatiga tegishli bo‘lmagan, markaziy davlat organlari tomonidan savdo yo‘nalishida qo‘yiladigan to‘siqlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Notarif tartibga solish texnik choralarining sinflanishini quyidagi 2-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. TIFni notarif usullar bilan tartibga solish texnik choralarining tasniflanishi (Svinuxov V.G., 2014.)

Texnik xarakterdagi to‘siqlarning keng tarqalgan turlari – milliy standartlarga rioya

qilish, import mahsulotlari uchun sifat sertifikatini talab qilish, tovarlarning qadoqlanishiga va markirovkalanishiga o'ziga xos talablarni qo'yish, muayyan sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, bojxona rasmiylashtiruv taomillarini amalga oshirish va boshqalardan iborat.

Ichki soliqlar va yig'imlar – savdo siyosatining ko'zga tashlanmas usullari bo'lib, ular import tovarlarining ichki bozordagi narxini oshirish orqali, ularning raqobatbardoshlik darajasini tushirishga qaratilgandir. Import tovarlariga qo'llaniladigan to'g'ri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, sotuv solig'i (bojxona rasmiylashtiruv uchun yig'im, ro'yxatdan o'tkazish va boshqa rasmiylashtiruvlar uchun, import yig'imlari) dan iborat bo'ladi.

TIFni davlat tomonidan tartibga solishda texnik to'siqlardan foydalanishning tartib va maqsadlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu usullar, fikrimizcha, ko'proq rivojlangan davlatlarga xosdir. Chunki rivojlangan davlatlar UJST qoidalariga rioya qilgan holda, o'z iqtisodiyotlarining ravnaqini o'ylaydi.

Shunday qilib, TIFni tartibga solish zarurligini va uni tartibga solishda qo'llaniladigan davlat vositalarining iqtisodiy mohiyatini o'rganish milliy iqtisodiyotning muayyan iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganidan dalolat beradi. Samarali faoliyat ko'rsatayotgan bozor mexanizmi iqtisodiy tizimning asosiy masalalari hal etilishini ta'minlaydi (Vahobov A.V., 2003). Hozirgi xalqaro savdoning globallasuvi sharoitida unda ishtirok etayotgan har bir mamlakatda o'zining iqtisodiy-ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish o'zida ham tarif, ham notarif usullarning asosiy tamoyillarini mujassamlashtirgan usullarni izlab topish va qo'llashga intilishlar kuchaymoqda. Shulardan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, mamlakatning milliy ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini har bir muayyan sharoitda himoya qila oladigan, xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, ichki bozor va davlat byudjeti manfaatlarini himoya qilishda TIFni tartibga solish davlat vositalari tizimida bojxona to'lovlari o'ziga xos o'rin tutadi.